


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI



“JADIDCHILIK XARAKATI TARIXI”
KURSI FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San‘at va gumanitar fanlar

Ta`lim sohasi: 220000 – Gumanitar fanlar

Ta`lim yo`nalishi: 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo`nalishlar bo`yicha)

Guliston – 2021

Fanning o'quv dasturi Guliston davlat universitetining „Tarix“ kafedrasida ishlab chiqilgan (26.08.2021, 1-sonli bayonnoma)

Fanning o'quv dasturi Guliston davlat universiteti Ilmiy Kengashida maqullandi va tasdiqlangan (28.08.2021, 1-sonli bayonnoma)

Tuzuvchi: U.Alibekov – “Tarix” kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchi: O.Nazarov – GulDU “Tarix” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Fan / modul kodi JXT2504	O'quv yili 2023-2024	Semestr 5	ECTS - Kreditlar 4	
Fan / modul kodi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlar i(soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Jadidchilik xarakati tarixi	60	60	120
2	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishning maqsadi – Mamlakatimiz buyuk o'zgarishlar jarayonida xalqimizning boy tarixi, betakror milliy qadriyatlari, bebaho ilmiy, madaniy merosi qayta tiklanib, butun bashariyatning noyob mulkiga aylandi. Ayniqsa, bugungi globalashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilishda Vatanimiz tarixini birlamchi manbalarga tayanib, har tomonlama va chuqur tadqiq etish yosh avlodga haqiqiy tariximizni o'qitish orqali ularni yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.</p> <p>Fanni o'qitishning vazifalari– Jadidchilik harakati haqida umumiy tushuncha. Jadidlarning maqsadi – Vatanni ozod va obod, millatni ozod va erkin, boy-badavlat qilish bo'lganligini tushuntirish. Turkistonda Milliy uyg'onish – jadidlar Renessansi davrini manbaviy asosda, rahbariy adabiyotlar, maruzalari asosida yanada chuqurroq jadidchilik harakatiga, allomalarning ta'lim tizimidagi ilg'or g'oyalari, bergan bahosi o'rganish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1. MAVZU. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI MA'MURIY BOSHQARUV TIZIMI VA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI</p> <p>Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. Turkiston general-gubernatorligi Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlaka siyosati tayanchi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlaka ma'muriy-boshqaruv siyosatining mohiyati. General-gubernatorlik funksiyalari. Turkiston o'lkasini boshqarish hususida 1865-1917 yillar qabul qilingan</p>			

Nizomlar va ularning mustamlakachilik tizimini mustahkamlashdagi ahamiyati. Hokimiyat, politsiya va sud organlari, ularning jazolash funksiyalarini kengayishi.

XIX asrning 70-yillarida Qo'qon xonligi. Xonlik hududidagi soliq tizimi. Qo'qon xonligi aholisining siyosiy va iqtisodiy huquqsizligiga qarshi norozlikning kuchayib borishi. Qo'qon xonligining tugatilishi. Turkiston general-gubernatorligining tarkibida Farg'ona viloyatining tashkil etilishi. Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosati. Turkiston o'lkasida mustamlaka sharoitida ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy hayot. Turkiston o'lkasi xom ashyo manbai va tayyor mahsulot bozoriga aylantirilishi. Temir yo'llarning qurilishi va uning mustamlaka manfaatlarga moslashtirilishi.

2. MAVZU. XIX ASRNING 70-90 YILLARIDA TURKISTON O'LKASIDA XALQ OZODLIK HARAKATLARI

XIX asr oxirlarida o'lka xalqlari turmush tarzining pasayib borishi. Milliy va mustamlaka zulmning kuchayishi, xalq ommasining norozilik harakatini kuchayishi. Qurmonjon dodxox boshchiligidagi harakatlar. Po'latxon qo'zg'oloni.

1892 yilgi Toshkent «Vabo isyoni». Qo'zg'olonning kelib chiqish sabablari. Mustamlaka ma'muriyat tomonidan qo'zg'olonni ayovsiz bostirilishi. Qo'zg'olon ishtirokchilari ustidan o'tkazilgan sud jarayoni.

1898 yil Andijon qo'zg'oloni. Muhammad Ali Dukchi Eshon. Uning siyosiy faoliyati. Qo'zg'olonni qamrab olgan hududlar. Farg'ona vodiysi qo'zg'olonning asosiy markazi ekanligi. Qo'zg'olonning tarixiy ahamiyati. Qo'zg'olon ishtirokchilari ustidan olib borilgan sud-tergov jarayoni. Xalq harakatlarining tarixiy ahamiyati.

3. MAVZU. MUSTAMLAKACHILIK SHAROITIDA TURKISTON O'LKASIDA MADANIY HAYOT

Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlaka siyosati. Turkiston general-gubernatorligining maorif sohasidagi siyosati. Rus-tuzem maktablarini tashkil etish bo'yicha N.O.Rozenbax tomonidan ishlab chiqilgan loyiha. Mustamlakachilik sharoitida Turkiston o'lkasida ilm-fan. O'lkani ilmiy asosda o'rganilishi. Turkiston o'lkasida milliy madaniyat musiqa, tasviriy san'at. Mustamlakachilik sharoitida milliy adabiyot, ijtimoiy-falsafiy qarashlar.

4. MAVZU. JADIDCHILIK HARAKATINING PAYDO BO'LISHI.

Jadidchilik harakati paydo bo'lishiga turtki bo'lgan tashqi va ichki tarixiy muhit va shart-sharoitlar. Jadidchilik davr mahsuli – farzandi ekanligi. Mustabid mustamlakachilik zulmi va mahalliy musulmon ziyolilari orasida mutaassiblik va bid'atlarning kuchayishi. Mutaassib din peshvolari tomonidan jadidlarning dahriylikda ayblanishi. Muhammad Abdo (1848-1903), Jamoliddin Afg'oniy (1851-1914) va Ismoilbek Gasprali (Gasprinskiy)lar musulmon dunyosida islohotchilik-jadidchilik harakatining asosiy mafkurachisi ekanligi. I.Gaspralining 1892-yildagi Turkiston general-gubernatoriga xati va "Tarjimon" gazetasi. Turkistondagi jadidchilik harakatining yirik namoyondalari. Jadidlarning "Ozodlik, Tenglik va Adolat" deb nomlangan shiori, Jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari.

5. MAVZU: JADID MILLIY XALQ MAORIFI.

"Jadid milliy xalq maorifi" tushunchasi va uning iste'molga kiritilishi masalasi. Jadid maktabining asosi "Usuli jadid" – "Usuli savtiya". Jadid maktabi musulmon dunyosi maorifidagi buyuk kashfiyot bo'lganligi (Ismoil Gaspralining 1884 yilda Gasprada tashkil etgan ilk jadid maktabi). Turkistonda dastlabki jadid maktabini ochgan buyuk mutafakkirlar: Ishoqxon Ibrat (Namangan viloyati, 1886), Shamsiddin domla (Andijon, 1899), Salohiddin majidiy (Qo'qon, 1989), Munavvarqori Abdurashidxonov (Toshkent, 1901) va boshqalar. Jadid maktabi darsliklari (Munavvarqori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqalar) Munavvarqorining maktabi va uning jadid maktablari uchun ilmiy-pedagogik markaz, oliy ta'lim – universitet uchun asos bo'lgani. Jadid milliy xalq maorifi tizimining shakllanish va uning uch bosqichi – boshlang'ich 4 yillik va o'rta 7 yillik jadid maktablari, musulmon xalq dorilfununi – hozirgi O'zMU.

6. MAVZU: JADID MILLIY MATBUOTI.

Milliy matbuot davr taqozosi bilan zarurat va millat extiyojiga aylanishi hamda tarixda ilk bor paydo bo'lishi. Toshkentda chop etilgan gazetalar: «Taraqqiy» (Ismoil Obidiy, 1906), «Xurshid» (Munavvarqori, 1906), «Tujjor» (Saidkarimboy Saidazimboev, 1907), «Sadoi Turkiston» (U.Asadullaxo'jayev, 1914), «Najot» (Munavvarqori, 1917), «Sho'roi Islom» (Abdulla Battol, 1917) va boshqalar. Toshkentda chop etilgan jurnallar: «Al-isloh» (Abdurahmon Sayyoh, 1915-1918), «Chayon» (1917), «Izhorul haq» (Mulla Sadriddinxo'ja mufti, 1918), «Al izoh» (1917-1918); Farg'onada chop etilgan gazetalar: «Sadoi Farg'ona»

(Obidjon Mahmudov, 1914), «Farg'ona nidosi» (1917), «Tirik so'z» (1914); Buxoroda chop etilgan gazetalar: «Buxoroi Sharif» (Mirjalol Yusufzoda, 1912-1913), «Turon» (G'iyosmaxsum Husayniy, 1913); Samarqandda chop etilgan gazetalar: «Samarqand» (M.Behbudiy, 1913), «Hurriyat» (1917), «Oyna» jurnali (1913-1915); Qo'qonda: «El bayrog'i» (B.Soliyev, 1917), «Tirik so'z» (O.Mahmudov, 1915) gazetolari, «Kengash» (Hamza Hakimzoda, 1917), «Yurt» (Ashurali Zohidiy, 1917) jurnallari chop etilishi.

7. MAVZU: JADID MILLIY ADABIYOTI VA SAN'ATI.

Mumtoz adabiyotdan farqli jadid, ya'ni yangi adabiyotning paydo bo'lishi. Roman, esse, hikoya, yozma drama, barmoq vazniga asoslangan she'riyat kabi jadid adabiy janrlari. Rus sharqshunos olimi A.N.Samoylovning jadid adabiyotini tan olib aytgan so'zi: «Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi». Jadid adabiyoti va teatrining ijtimoiy-siyosiy xarakteri. M.Behbudiyning «Padarkush» p'esasi va ilk bor milliy teatrning paydo bo'lishi. Buyuk jadid adib va dramaturglari hamda ularning asarlarida istiqlol, islohot, milliy g'oya va mafkura, ijtimoiy hayot bayoni.

8. MAVZU: JADIDCHILIK HARAKATIDA TARIX, TARIX TA'LIMI VA FALSAFASI MASALASI.

«Tarix» degan tushuncha, tarix tajribasi va falsafasi haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashga jadidlarning ho'shgan hissasi. Tarix ilmining ilk bor jadid maktablarida o'qitilishi, tarix va geografiya darsliklari (M.Behbudiy, Fitrat, A.Avloniy va boshqalar). M.Behbudiy, Munavvarqori, N.Yovushev, Alixon Sog'uniylarning Turkiston tarixi haqidagi asarlari va ularda tarixga berilgan baholar. I.Gaspralining Turkiston tarixi falsafasiga oid «Muqomalai salotin» («Sultonlar suhbat») deb nomlangan tarixiy-xayoliy hikoyasi («Tarjimon», 1906 yil dekabr – 1907 yil yanvar) va unda «Jazoiiy-tarixiya» g'oyasining olg'a surilishi.

9. MAVZU: JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO'ZG'OLONIDA TUTGAN O'RNI.

Qo'zg'olonning paydo bo'lish sabablari va qo'zg'olonchilarning jazolanishi. Jadidlarning qo'zg'olonga munosabati. Toshkentda 1916 yil avgustda tuzilgan mardikorlarni Rossiyaga tashkiliy-uyushgan holda jo'natuvchi Maxsus Qo'mita (U.Asadullaxo'jayev rais, Munavvarqori

Abdurashidxonov muovin, Q.Asadullabekov kotibligida) va uning ish faoliyati. Jadidlar tashabbusi bilan tuzilgan maxsus guruh (Vadim Chaykin, U.Asadullaxo'jayev) tomonidan Rossiyaning IV Davlat dumasida xalq manfaati himoya qilinishi, rus podshosi Nikolay II mardikorlikka olish muddatini 15 sentyabrgacha kechiktirishga majbur bo'lgani. Turkistonga xalq shikoyatini tekshirish uchun Davlat Dumasining komissiyasi (Kerenskiy, Tavkelov)ning kelishi.

10. MAVZU: JADIDLARNING MILLIY DAVLATCHILIKNI TIKLASH UCHUN KURASHI.

Rossiyada ijtimoiy-demokratik inqilobning g'alaba qozonishi (27 fevral). Butun Rossiyada, shuningdek uning mustamlakasi Turkistonda ham demokratiya va milliy-ozodlik harakatining rivojlanishi. Jadidchilik harakati siyosiy kuch va rahbarlikka aylanishi. "Sho'roi islomiya" va uning joylardagi sho'balari milliy demokratik boshqarma (hukumat)ning kurtagi sifatida faoliyat yuritishdi. "Sho'roi islomiya"ning muvaqqat Nizomi (O'lka musulmonlarining markaziy sho'rosining 1917 yil 12 iyundagi majlisida qabul qilinishi. Butunturkiston musulmonlarining birinchi (16-23 aprel), ikkinchi (8-10 sentyabr), uchinchi (12-15 noyabr), to'rtinchi (Qo'qon, 26-29 noyabr) qurultoylari. Toshkentda rus ishchi, askar va dehqon deputatlarining III qurultoyi chaqirilishi. RSFR Turkiston xalq komissari soveti – sovet hukumatining tashkil topishi.

11. MAVZU: MILLIY HUKUMAT – TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLIYATI.

Butunturkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi chaqirilishi (1917 yil 26-29 noyabr). Muvaqqat Turkiston muxtoriyatining tashkil topishi, uning tarkibi va faoliyati. Turkistondagi uch hokimiyatchilik o'rnida ikki milliy va nomilliy hokimiyat - hukumatning paydo bo'lishi. Milliy davlatchilik jadidchilik harakatining eng buyuk yutug'i sifatida tiklanishi. Turkiston muxtoriyati Turkistonda barcha millatlarning manfaatini ifoda etuvchi hukumat sifatida omma tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Vodiy va Toshkentdagi ko'pming kishilik mitinglar. Qurultoy tomonidan Leninga yuborilgan telegramma. Kommunistik mustamlaka – sovet hukumati tomonidan Turkiston muxtoriyati va Qo'qon shahrining qonga botirilishi.

12. MAVZU: JADIDCHILIKDA DUNYOVIY OLIY TA'LIM G'OYASI VA O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING

TASHKIL TOPISHI.

Turkistonda qadimdan rivoj topgan musulmon oliy ta'limi markazlari – madrasalarda mutaassiblikning kuchayishi. Jadidchilikda hozirgi zamon dunyoviy oliy ta'lim g'oyai rivoj topishi (Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va boshqalar). Zamonaviy yevropacha oliy ta'lim millat uchun ham, rus bosqinchilari uchun ham tarixan ehtiyojga aylanganligi. Jadid maktablari millat farzandlariga dunyoviy ilm asoslarini singdirib, ularda xorij oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qish qabuliyatlarini tarbiyalay olganligi. Toshkentda "Ko'mak" (1909-1922) va Buxoroda "Tarbiyai otfol" (1910-1922) xayriya jamiyatlari yoshlarni Rossiya, Turkiya, Germaniya, Ozarbayjonga o'qishga yuborgani. Munavvarqori Abdurashidxonov va tomonidan hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining milliy asosi – Musulmon xalq dorilfununining tashkil etilishi. O'zbekiston Respublikasi Biriychi Prezidenti I.Karimovning "Toshkent Davlat universitetiga "O'zbekiston Milliy universiteti" maqomini berish to'g'risida"gi Farmoni.

13. MAVZU: BUXORO VA XIVADA JADIDCHILIK HARAKATI.

Buxoro va Xivada jadidchilik harakati paydo bo'lib rivojlanishi va uning o'ziga xos jihatlari. Buxoroda jadid maktablari (1911-1912 yillar) o'zbek va tojik maktablari 57 ta bo'lgani. 1917 yil Rossiyada fevral inqilobi g'alabasidan so'ng Buxoroda jadidchilik siyosiylashishi va ochiq faoliyatga o'tishi. Jadidlar (Fitrat) tomonidan tayyorlangan islohotchilik loyihasini 1917 yil 7 aprelda amir tomonidan e'lon qilinishi va "Yosh buxoroliklar" partiyasi. Buxoroga sovet hukumati jadidlar (F.Xo'jayev va boshqalar) yordamida ikki marta bostirib borishi va amirlikning tugatilishi. Amirlikning oltin hazinasi va uning taqdiri).

Xiva xonligidagi jadidchilik maxfiy ravishda 1904 yilda Xiva shahrida "Jamiyati xayriya" va jadid maktabi ochilishidan boshlanishi. Jadidchilik harakatining ikkinchi bosqichi: Xonning bosh vaziri Islomxo'ja va qozikalon Boboovun Salimov boshchiligidagi islohotchilik harakati; 1916 yildagi xalq qo'zg'oloni. Harakatning uchinchi bosqichi: 1917 yildan jadidchilik xonga qarshi ochiq siyosiy va islohotchilik harakatiga aylanishi. "Yosh xivaliklar" partiyasi (Polvonniyoz-hoji Yusupov, Jumaniyoz Boboniyozov, Bobojon Yoqubov, Jumaniyoz Sultonmurodov va boshqalar). To'rtko'lda kommunistik guruhning tuzilishi (J.Sultonmurodov, 1919 yilning boshida). Jadidlar yordamida sovet armiyasi xonlikni bosib olishi (1919 yil noyabr – 1920 yil fevral). XXSR

tashkil topishi.

14. MAVZU: JADIDLARNING KOMMUNISTIK MUSTAMLAKA – SOVET HUKUMATIGA QARSHI KURASHI VA QATAG'ON QILINISHI.

Turkiston, Buxoro va Xivada o'rnatilgan sovetlar hukumatining mustamlakachilik mohiyati va unga jadidlarning munosabati (Munavvarqori, M.Cho'qayev, Fitrat va boshqalar). Jadidlar orasida ajralishning paydo bo'lishi: muhojir bo'lib xorijga ketish, sovet hukumati tomon o'tib, uni demokratik asosda tanqid qilish va unga qarshi "bosmachilik urushi" olib borish va maxfiy tashkilotlar tuzilishi. Jadidlar tasarrufi va ta'sirida bo'lgan madaniy-ma'rifiy va siyosiy, maxfiy va rasmiy ochiq tashkilotlar: "Chig'atoy gurungi" (1918-1919), "Nashri maorif" (1922-1924), Musulmon kommunistik partiyasi va uning konferentsiyalari (1919-1920); RKP(b)ning Turkiston musulmon byurosi (Musbyuro); Sharq xalqlari konferentsiyasi (Boku, 1920 yil 1-7 sentyabr); "18 lar guruhi" (1925); "Inog'omovchilar" (1926); "Qosimovchilar" (1929), maxfiy jadid tashkilotlari: "Ittixodi taraqqiy" (1917-1920); "Ittihodi milliy" yoki "Milliy ittihad" (1920-1925); "Milliy istiqlol" (1926-1929); "Turkiston milliy birligi" – "Markazlar markazi" (Buxoro, 1920-1923); "Turkiston sotsialistik "Erk" partiyasi (1919-1926); Jadid partiyasi.

15. MAVZU: TURKISTONNING MILLIY UYG'ONISHI – JADIDLAR RENESSANSI (XULOSA O'RNIDA).

«Uyg'onish – Renessans» tushunchalari. O'tmish tariximizdagi buyuk uyg'onish davrlari. Yevropa Uyg'onishi (XIV-XVI asrlar). Turkistondagi ilk Islom Uyg'onishi (IX-XII asrlar). Jadidchilik harakatining o'zi uyg'onish alomati bo'lib, Turkistonda Milliy Uyg'onish - jadidlar renessansi davrini yuzaga keltirgani (Vadud Mahmud, Mirmuhsin Shermuhamedov, Laziz Azizzoda). Istiqloldan so'ng bu davrning qayta kashf etilishi (B.Qosimov, B.Do'sqorayev, U.Dolimov, Yusupov, S.Xolboyev va boshqalar). Milliy uyg'onishning asosiy belgi va alomatlari: milliy adabiyotning yangilanishi, millatda tafakkur, ijtimoiy-siyosiy ong uyg'onishi, o'zlik anglanilishi, milliy matbuot, teatr, madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy uyushma (tashkilot) va partiyalarning paydo bo'lishi, jamiyatda tub burilish - madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar yuz berishi, jadid madaniyatining taraqqiy etishi.

Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

- Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
1. Jadidchilik harakati tarixi kursi. Jadidchilik harakatining paydo bo'lishi.
 2. Jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.
 3. Jadid milliy xalq maorifi.
 4. Jadid milliy matbuoti.
 5. Jadidchilikda dunyoviy oliy ta'lim g'oyasining shakllanishi.
 6. Musulmon xalq dorilfununi – hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining tashkil topishi
 7. Jadid milliy adabiyoti
 8. Jadid milliy san'ati
 9. Jadidchilik harakatida tarix ta'limi
 10. Jadidchilik harakatida falsafa masalasi
 11. Jadidlarning milliy davlatchilikni tiklash uchun kurashi
 12. Jadidchilik harakati siyosiy kuch va rahbarlikka aylanishi
 13. Milliy hukumat – Turkiston muxtoriyati va uning faoliyati
 14. Milliy davlatchilik jadidchilik harakatining eng buyuk yutug'i sifatida tiklanishi
 15. Buxoroda jadidchilik harakati
 16. Xivada jadidchilik harakati
 17. Turkistonning milliy uyg'onish – jadidlar renesansi

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar - bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim seminar mashg'ulotlariga tayorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabanning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. 1. Jadidchilik va tarix
2. Jadidlar va 1916 yildagi xalq qo'zg'oloni
3. Jadidchilikda milliy zamonaviy-dunyoviy oliy ta'lim
4. Jadidchilik – milliy uyg'onish (Renessans) davri ekanligi
5. M.Behbudiyning ijod faoliyati
6. Adib A.O'tar ijodida milliy vatanparvarlik
7. A.Avloniyning maktab sohasidagi faoliyati
8. A.Fitratning hayot yo'li

	<p>9. F.Xo'yayevning milliy davlatchilik masalasidagi qarashlari Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3	<p>Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - maktab, litseylarda O'zbekiston tarixi kursi o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr jarayonida yurtimiz tarixida Jadid allomalarining ilm-fan sohasidagi yutuqlari, demokratik o'zgarishlar to'g'risida to'liq <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; - O'zbekiston tarixi fanida kurslarida milliy uyg'onish, Vatan tuyg'usi kabi tushunchalarni jadid marifatparvarlari harakati orqali isbotlashni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; - maktab, litseylarida o'tiladigan jadidchilik harakati tarixi kursining maruza hamda o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i>
4	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; <p>jamo'a bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p>
5	<p>Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p>ASOSIY ADABIYOTLARI:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. Тошкент: «Ўзбекистон» 2016. 2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Тошкент.: Ўзбекистон. 2017. 3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом

- эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. -Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998.
 5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустанлакачилиги даврида. –Т.: Шарқ, 2000
 6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. –Т.: Шарқ, 2000.
 7. Жади́дчилик: ислохот, янгилаиш, мустанкилик ва тараккиёт учун кураш. Даврий тўплам. №1. –Т.: Университет. -1999.
 8. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002.
 9. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. Миллий – демократик давлатчилик курилиши тажрибаси. –Т.: Маънавият, 2000.
 10. Холбоев С. Миллий университетнинг тарихий илдиэлари ва ташкил топиши [Жади́дларнинг миллий университетга асос солганлиги хақида монография] –Т.: «Шарқ», 2003.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

11. Алимова Д.А. Джади́дизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. –Т.: Узбекистан, 2000.
12. Абдурашидхонов М. Хотираларимдан. (Жади́дчилик тарихидан лавхалар). –Т.: Шарқ, 2001.
13. Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. –Т.: «Маънавият», 2003.
14. Долимов У. Туркистонда жади́д мактаблари. – Т.: “Университет”, 2006.
15. Бехбудий М. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2 нашри. –Т.: Маънавият, 1999.
16. Гаспиринский (Гаспирали). Хаёт ва мамот киссаси. Танланган асарлар – Т., “Маънавият”, 2006.
17. Ризаев Ш. Жади́д драмаси. –Т.: «Шарқ», 1997.
18. Фитрат А. Танланган асарлар 1-жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. –Т.: Маънавият, 2000.
19. Фитрат А. Танланган асарлар. 2-жилд. Илмий асарлар. –Т.: Маънавият, 2000.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.fvat.uz.
5. www.mirknig.ru.

7	Fan dasturi Guliston davlat universiteti Ilmiy Kengashning 2021 yil 28 avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8	Fan/modul uchun mas'ul: U. Alibekov - GulDU "Tarix" kafedrası katta o'qituvchisi
9	Taqrizchilar: U.Qlichev – SVXTXQTMOXM "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrası mudiri O.Nazarov – GulDU "Tarix" kafedrası dotsenti, t.f.n.

